



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI.....	12
Usmonova Zarina	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI VA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	19
Zaripova Sabrina Zafar qizi	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK TARMOG'IDA INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA JORIY ETISH: SAMARADORLIK, TO'SIQLAR VA ISTIQBOLLAR.....	25
Sobirov Shohruh Shuxratovich	
ISTE'MOLCHILAR ORASIDA IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI QISQA FORMATLI VIDEOKONTENTNING IMPULSIV XARID XATTI-HARAKATLARIGA TA'SIRI.....	30
Ra'no Balxiboyeva Davron qizi	
KAPITAL BOZORI ORQALI TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH YO'LLARI.....	40
Otabek Oltiboyev	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISHNING YALPI TALAB O'ZGARISHIGA TA'SIRI TAHLILI.....	45
Ochilov Laziz Siddiqovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA YANGI ISLOHOTLARNING MAKROIQTISODIY TAHLILI	54
Sanakulova Iroda Abrorovna	
GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L YAYLOVLARI IXTISOSLASHUVINI MOSLASHTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZILQUM CHO'L YAYLOVLARI MISOLIDA)	61
Kozokov Najmiddin Isomiddinovich	
XALQARO OLIY TA'LIM TIZIMLARIDA UNIVERSITET BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI: INSTITUTSIONAL AVTONOMIYA, HISOBDOIRLIK VA STRATEGIK BOSHQARUV MODELLARI	68
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
THREE GENERATIONS OF REFORM: GOVERNANCE PARADIGMS AND THE MEASUREMENT GAP IN UZBEKISTAN'S SUSTAINABLE DEVELOPMENT TRANSITION	76
Salakhutdinova Yulduz Golibovna	
ГЕНЕРАТИВНЫЙ ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНТЕНТ-МАРКЕТИНГА	82
Умарова Нозанин Алишерзода	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	88
Sapayev Abduljalol Odinayevich	
TIJORAT BANKLARIDA TO'LOV TIZIMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH	96
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
UMUMIY IQTISODIY MUVOZANAT NAZARIYASINING ZAMONAVIY TALQINI.....	102
Murodov Alisher Murodjon o'g'li	
РОЛЬ СИСТЕМЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕЁ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	106
Уралова Сожида Анвар кизи	



JIZZAX VILOYATI TURIZMINING RIVOJLANISH DINAMIKASI, TUZILMASI VA ISTIQBOLLARI (2016–2024-YILLAR)	112
Mamadiyrov Adhamjon Qo'chqar o'g'li	
KREATIV INDUSTRIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	121
Ulug'bekov Sardorbek Ulug'bekovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	128
Turdiyev Eralijon Muxtarovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BUDJETDAN TASHQARI TUSHUMLAR AUDITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	134
Abduraxmonov Saidqosimxon Abduhamid o'g'li	
CHAKANA BANK XIZMATLARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING NAZARIY JIHATLARI	138
Asqarov Fayzullo G'iyosiddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BILIM VA MALAKALARNI RAQAMLI BAHOLASH TIZIMINING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	148
Abdiyev Nosir Raximovich	
Muzaffarova Mohira Nuraliyevna	
O'ZBEKISTON BANK SEKTORIDA MOLIYAVIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	154
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZM INFRATUZILMASINING HUDUDII RIVOJLANISH DARAJASINI QIYOSIY BAHOLASH	160
Omonova Nigora Bahodir qizi	
ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING INSTITUTSIONAL RIVOJLANISHINI STRATEGIK BOSHQARISH MEXANIZMLARI	167
Iskandarov Xurshid Iskandarovich	
TEXNOLOGIK AVLOD ALMASHINISHI SHAROITIDA ALOQA KORXONALARI TOVAR-MODDIY ZAXIRALARINING QADRSIZLANISHINI HISOBGA Olish USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	175
Jamilov Jushqin Jonon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH DARAJASINI ANFIS ASOSIDA MODELLASHTIRISH	181
Avazova Nafisa Namazovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH: O'ZSME-DDI MODULINING METODOLOGIYASI VA AMALIY JORIY ETISH MEXANIZMI	186
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
ISLOM MOLIYASI TAMOYILLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	193
Kenjaeva Durdona Ravshan qizi	
ФАКТОРНЫЙ АНАЛИЗ КАК ИНСТРУМЕНТ ИССЛЕДОВАНИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	198
Аюбов Ойбек Улугбек угли	
YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA MA'LUMOTLAR TAHLILINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH	204
Raximov Sarvarbek Abdumutalibjonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH, ULARNI MOLIYALASHTIRISHNI RAG'BATLANTIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI	211
Umarova Gulzodxon Qodirbekovna	



MEHMONXONA XO'JALIKLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL MEXANIZMI VA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	216
Rahimov Hasan Abdusaitovich	
NOMODDIY AKTIVLAR BO'YICHA OSHKORALIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA MILLIY HISOBNI XALQARO STANDARTLAR BILAN UYG'UNLASHTIRISH.....	221
Ishankulov Izzatilla Nurillayevich	
SANOATLASHTIRISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA UNUMDORLIK OMILI.....	226
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
INNOVATSION O'ZGARISHLAR ASOSIDA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHNING 2030-YILGACHA MO'LJALLANGAN PROGNOZ SSENARIYLARI VA ULARNING SEZGIRLIK TAHLILI	232
Amrullayev Dadaxon	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ УЯЗВИМОСТИ СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ И СТРУКТУРНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	237
Эркинбаева Камила Жавланбековна	
TIJORAT BANKLARI BIZNES MODELINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	243
Sh. Nurullayeva	
S. Narimonov	
OLIY TA'LIMDA RAQAMLI EKOTIZIMNI SHAKLLANTIRISHDAGI XAVF-XATARLAR (RISKLAR) VA BOSHQARUV MUAMMOLARI.....	249
Pirmanov Oxunjon Baxridin o'g'li	
НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	256
Шомуродов Равшан Турсункулович	
Хакимов Хафизбек Хамза угли	
Джумабаева Гаянэ Рахимовна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOTRANSPORT XIZMATLARI BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI EKOLOGIK-IQTISODIY OMILLAR ASOSIDA OSHIRISH YO'LLARI	263
Sultanov Sulaymon Safarboy o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA UNI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	269
Abdushukurova Mehribonu Dilmurod qizi	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH, YER RESURLARIDAN FOYDALANISH VA AHOLINING XARID QOBILIYATI MUVOFIQLIGINI BAHOLASH	276
Ramazonov Zafar Ulug'bekovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ СТРАХОВОГО РЫНКА	281
Мирахмедова Мафтуна Ибрагимовна	
TIJORAT BANKLARIDA FOIZ SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING AMALIY JIHATLARI.....	288
Orifova Dilnoza Obid qizi	
XALQARO KREDIT LINIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	295
Aliyev Bekzod Ilhomovich	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ УЧЁТА И АНАЛИЗА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ	301
Холикова Дурдона Бунёдjon кизи	



TOSHKENT VILOYATIDA ISHLAB CHIQUARISH SOHASIDA KICHIK BIZNESNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA HUDUDIIY DIFFERENSIATSIYASI.....	308
Salimov Burxoniddin	
IJTIMOIIY-IQTISODIIY ADOLATNI TA'MINLASHDA SINERGETIK YONDASHUV: ZANJIRLI ADOLAT KONSEPSIYASI.....	314
Alimov Nasimjon Hoshimovich	
AQLLI SHAHAR TIZIMIDA IJTIMOIIY SOHA BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEXANIZMLARI.....	319
Radjabov Bunyod Abduxalilovich	
QO'SHILGAN QIYMATNI TAQSIMLASHNING SAMARALI SOLIQ MEXANIZMIGA OID XORIJ TAJRIBALARI.....	326
A.A. Bobomurodov	
O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT" TIZIMIGA O'TISH ZARURIYATI VA XIZMATLAR SOHASI UCHUN IQTISODIIY AHAMIYATI.....	333
Y.M.Xalikov	
OLIIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA AKADEMIK FAOLIYATNI BOSHQARISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	342
Ixtiyorov Bekzod Zulfiqor o'g'li	
YOSHLARNING RAQAMLI MEHNAT PLATFORMALARIDA BARQAROR BANDLIGINI RISKKA ASOSLANGAN STRATEGIK BOSHQARISH.....	349
Palvonova Sevara Baxromovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	355
Almanov Ilhom Sultonovich	
MAKTABGACHA TA'LIM XIZMATLARINI GEYMIKATSIYALASH ASOSIDA TA'LIM SIFATI VA IQTISODIIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH	362
Aslonova Rushano Ilxomovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIIY NATIJADORLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH.....	368
Tursunxo'jayeva Gulnoza Jamoliddin qizi	
HUDUDLARNING IQTISODIIY RIVOJLANISHIDA ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	374
Xolmatov Azamatjon Abdupattoyevich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКСПОРТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭКСПОРТНОЙ АКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ	380
Муниса Турдибаева	
LOYIHA MENEJERLARINING SOFT SKILLS KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING LOYIHALAR IQTISODIIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	394
Zairova Farida To'xtamurod qizi	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIIY KO'RSATKICHLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH.....	400
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	407
Jumaev Sohob Baxodirovich	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI VA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TRANSFORMATSIYON MODELII.....	412
Murodullayeva Guljaxon A'zamjon qizi	
INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY VA USLUBIIY ASOSLARI	418
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARI	426
Olimboyeva Nazokat Abdujabbor qizi	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARIDA INTEGRALLASHGAN RISKKA YO'NALTIRILGAN AUDIT MODELIDAN FOYDALANISH USLUBIYOTI.....	431
Muydinov Erkin Jamaldinovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	441
Bekbergenov G'ayrat Shuxratovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARINING EKSPORT FAOLIYATINI SOLIQ MEKANIZMLARI ASOSIDA MOLIVAVIY RAG'BATLANTIRISH	446
O'rinova Umida Qodirjonovna	
SOG'LIQNI SAQLASHNING YAGONA RAQAMLI EKOTIZIMIDA KIBERXAVFSIZLIK RISKLARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	450
Turayeva Nafisa Odiljonovna	
XORAZM VILOYATIDA YER BOZORI INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	456
Ubaydov Mirshod Ismailovich	
O'ZBEKISTON UY-JOY BOZORIDA MOLIVAVIY PUFAK XAVFINI BAHOLASH: INTEGRAL INDEKSNI SHAKLLANTIRISH VA EKONOMETRIK TAHLIL	462
Botirov Islombek Ulug'bek o'g'li	
SUTCHILIKGA IXTISOSLASHGAN CHORVACHILIK KORXONALARIDA TANNARXNING BUXGALTERIYA HISOBINING OBYEKTI SIFATIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	467
Razzoqov Abbas Abdumalik o'g'li	
BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY XATO VA NOMUVOFIQLIKLAR ICHKI AUDITINING INSTITUTSIONAL-TASHKILY MEKANIZMI	472
Mulayev Farxod Alisherovich	
SHAHAR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK BARQARORLIK TAMOYILLARINI JORIY ETISH: MUAMMOLAR, INNOVATSION YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR.....	477
Nurtayev Zaxriddin	
SANOATNING «DRAYVER» SOHALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY O'SISHNI JADALLASHTIRISH	482
Xolbozorov Muzraf Yusup o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ЦИФРОВОГО СТРАХОВАНИЯ ТУРИСТСКИХ РИСКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	489
Усманова Азиза Бахтиер кизи	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AHOLIGA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI.....	497
Rajabov Saidrasul Xalil o'g'li	
AYOLLAR TADBIRKORLIGI VA GENDER TENGLIGI: XITOI VA O'ZBEKISTON MEHNAT BOZORLARI TRANSFORMATSIYASI MISOLIDA	504
Xasanova Shaxzoda	
SOLIQ TIZIMIDA MARKIROVKALASH ORQALI XUFIYONA IQTISODIYOT VA SOLIQDAN QOCHISHNI QISQARTIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....	510
Ismailov Bobir Salomovich	
MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA BOSHQARUV HISOBOTI METODOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISH KONSEPSIYALARI	517
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
HUDUDIY IQTISODIY TIZIMNI INNOVATSION BOSHQARISHDA "INNOVATSION EKOTIZIM" KONSEPSIYASI ASOSIDA ICHKI VA TASHQI MUHITLAR O'RTASIDAGI DINAMIK O'ZARO TA'SIRLARNI BAHOLASH.....	521
Xolov Azimjon	



ECONOMIC AND ORGANIZATIONAL MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN TOURISM	530
Abdurashidova Mahfuza Tolibjon kizi	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	534
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
SAVDO XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	545
Raxmanov Sherzod Shuxratovich	
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ АУДИТА ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	552
Абдуллаева Ш.Э.	
Чернушкина Л.А.	
O'ZBEKISTONDA JADAL URBANIZATSIYA SHAROITIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARINI SHAHARSOZLIKKA INTEGRATSIYA QILISH.....	557
Azamiddin Quldashev	
MANAGEMENT OF CULTURAL HERITAGE IN TOURIST DESTINATIONS OF UZBEKISTAN: THE CASE OF THE NEWLY RESTORED IMAM AL-BUKHARI COMPLEX	562
Saidzoda Shakhlokhon Murodiloevna	
O'ZBEKISTONDA PENSIYA TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA MINTAQAVIY TAHLILI	568
Jumabayeva Kumush Botir qizi	
CIVIL-MILITARY COOPERATION AND SOCIOECONOMIC DEVELOPMENT IN NIGERIA: A STATISTICAL ASSESSMENT OF EDUCATIONAL AND LEGAL POLICY OUTCOMES.....	578
Adams Adah Otakwu	
Muhammad Auwal Sule	
Blessing Onyanta Otakwu	
Mercy Omoo Otakwu	
SOCIAL CONDITIONS AND ORGANISED CRIMINALITY IN NIGERIA: IMPLICATIONS FOR LAW ENFORCEMENT AND SOCIAL POLICY	591
Adams Adah Otakwu	
Muhammad Auwal Sule	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARINING EKOLOGIK-IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODIK ASOSLARI.....	601
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	
KICHIK BIZNESDA BANDLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI TIZIMLASHTIRISH VA BAHOLASHNING EKONOMETRIK YONDASHUVLARI.....	607
Turdiqulov Farrux Ravshanjon o'g'li	
KOMPETENSIYA MATRIKSINING MEHNAT BOZORIDAGI AHAMIYATI VA UNING O'ZBEKISTON UCHUN INSTITUTSIONAL JIHATLARI	616
Kurbanbayeva Sevara Marat qizi	
BYUDJET YO'QOTISHLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA KO'P O'LCHOVLI TASNIFI (RISK-MENEJMENT KONTEKSTIDA)	623
Jasur Nurmatov	



BYUDJET YO'QOTISHLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA KO'P O'LCHOVLI TASNIFI (RISK-MENEJMENT KONTEKSTIDA)

Jasur Nurmatov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Jasur.nematov@mail.ru

Abstract. The article analyzes the economic essence and classification of budget losses in the context of risk management. Losses are interpreted not as random events but as a product of information asymmetry in agency relationships — a systemic and predictable risk. The author proposes a three-dimensional classification of budget losses: by mechanism (active and passive), by determinant (monopoly, discretion, and lack of accountability), and by stage of the procurement cycle (pre-tender, tender, and post-tender). Each intersection of the classification matrix is linked to a specific risk indicator (red flag), which makes it the theoretical basis for the risk-scoring model to be developed in the following chapter.

Keywords: budget losses, classification, active and passive losses, agency theory, public procurement, risk indicators (red flags).

Annotatsiya. Maqolada byudjet yo'qotishlarining iqtisodiy mohiyati va tasnifi risk-menejment kontekstida tahlil qilinadi. Yo'qotish tasodifiy hodisa emas, balki agentlik munosabatlaridagi axborot asimmetriyasi mahsuli — tizimli va bashorat qilinadigan xatar sifatida talqin etiladi. Muallif tomonidan byudjet yo'qotishlarining uch o'lchovli tasnifi taklif etiladi: mexanizm bo'yicha (aktiv va passiv), determinant bo'yicha (monopoliya, diskretsiya, hisobdorlik yetishmovchiligi) hamda xarid siklining bosqichi bo'yicha (pre-tender, tender, post-tender). Tasnif matritsasining har bir kesishmasi aniq risk-indikator (red flag) bilan bog'lanadi, bu esa uni keyingi bobda ishlab chiqiladigan risk-skoring modelining nazariy asosiga aylantiradi.

Kalit so'zlar: byudjet yo'qotishlari, tasnif, aktiv va passiv yo'qotishlar, agentlik nazariyasi, davlat xaridlari, risk-indikatorlar (red flags).

Аннотация. В статье анализируются экономическая сущность и классификация бюджетных потерь в контексте риск-менеджмента. Потери интерпретируются не как случайное явление, а как результат информационной асимметрии в агентских отношениях — системный и прогнозируемый риск. Автором предлагается трёхмерная классификация бюджетных потерь: по механизму (активные и пассивные), по детерминанте (монополия, дискреция, недостаточность подотчётности), а также по этапам закупочного цикла (pre-tender, tender, post-tender). Каждое пересечение классификационной матрицы связано с конкретным индикатором риска (red flag), что превращает её в теоретическую основу модели риск-скоринга, разрабатываемой в следующей главе.

Ключевые слова: бюджетные потери, классификация, активные и пассивные потери, агентская теория, государственные закупки, индикаторы риска (red flags).

KIRISH

Byudjet mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanish davlat moliyasining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, davlat xaridlarida katta moliyaviy resurslarning aylanishi ushbu sohada yo'qotishlar, samarasizlik va turli xatarlarni oldindan aniqlash zaruratini kuchaytiradi. Shu sababli byudjet yo'qotishlarini faqat sodir etilgan huquqbuzarlik sifatida emas, balki ehtimolligi baholanishi va boshqarilishi mumkin bo'lgan iqtisodiy xatar sifatida o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Byudjet yo'qotishlarining yuzaga kelishida axborot asimmetriyasi, manfaatlar to'qnashuvi, raqobatning cheklanishi, diskretion vakolatlar va hisobdorlikning yetarli darajada ta'minlanmasligi muhim omillar hisoblanadi. Ushbu omillarni tizimli tasniflash va ularni aniq risk-indikatorlari bilan bog'lash moliyaviy nazoratning preventiv imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi byudjet yo'qotishlarining iqtisodiy mohiyatini ochib berish, ularni risk-menejment nuqtai nazaridan ko'p o'lchovli tasniflash hamda ushbu tasnifni keyinchalik risk-skoring modelini ishlab chiqish uchun nazariy-metodologik asos sifatida shakllantirishdan iborat.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Byudjet yo'qotishlarining iqtisodiy mohiyatini tushuntirishda bir qator nazariy yondashuvlar muhim o'rin tutadi. F. Knight risk va noaniqlikni farqlab, boshqarilishi mumkin bo'lgan xatarlarning nazariy asosini yaratgan bo'lsa, G. Becker huquqbuzarlikni kutilayotgan foyda, aniqlanish ehtimoli va jazo miqdori bilan bog'liq ratsional qaror sifatida izohlaydi. Jensen va Mecklingning agentlik nazariyasi esa axborot asimmetriyasi hamda manfaatlar to'qnashuvini iqtisodiy yo'qotishlarning muhim manbalaridan biri sifatida asoslaydi. Klitgaard va Rose-Ackerman tadqiqotlarida monopoliya, diskretsiya va hisobdorlik darajasi korrupsiya hamda davlat resurslaridan samarasiz foydalanish bilan bog'langan.

Empirik tadqiqotlarda Bandiera, Prat va Valletti davlat xarajatlaridagi yo'qotishlarni aktiv va passiv isrofga ajratgan, Decarolis va Giorgiantonio hamda Open Contracting Partnership esa davlat xaridlarida red-flag indikatorlaridan foydalanish imkoniyatlarini yoritgan. Bosio davlat xaridlarida raqobat, shaffoflik va raqamli nazoratning korrupsiya xavfini kamaytirishdagi rolini ta'kidlaydi. Mahalliy adabiyotlarda Vahobov va Qosimova davlat moliyasini boshqarishning institutsional asoslarini yoritgan. Mazkur tadqiqot ushbu nazariy va empirik yondashuvlarni birlashtirib, byudjet yo'qotishlarini risk-menejment nuqtai nazaridan ko'p o'lchovli tasniflashga qaratilgan.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda byudjet yo'qotishlarining iqtisodiy mohiyati va ularni risk-menejment nuqtai nazaridan tasniflash uchun tizimli, qiyosiy va nazariy tahlil usullaridan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan agentlik nazariyasi, renta izlash konsepsiyasi, jinoyat iqtisodiyoti, risk va noaniqlik yondashuvlari o'zaro solishtirilib, ularning davlat xaridlaridagi byudjet yo'qotishlarini izohlash imkoniyatlari baholandi.

Shuningdek, byudjet yo'qotishlari mexanizm, determinant va xarid sikli bosqichlari bo'yicha guruhlanib, ko'p o'lchovli tasnif matritsasi shakllantirildi. Tasnif elementlarini amaliy risk-menejment bilan bog'lash maqsadida red-flag indikatorlari, risk-skoring va tranzaksion ma'lumotlarni tahlil qilish yondashuvlaridan metodologik asos sifatida foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy manbalarni tizimlashtirish, terminologik izchillikni ta'minlash va matnni texnik jihatdan takomillashtirishda sun'iy intellekt vositalaridan 10 foizgacha yordamchi vosita sifatida foydalanildi; asosiy ilmiy xulosalar, nazariy yondashuvlar va mualliflik talqinlari tadqiqot muallifiga tegishlidir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi davlat moliyasi barqarorligining asosiy shartlaridan biridir. Jahon amaliyotida davlat xaridlari eng katta moliyaviy oqimlar bilan bog'liq soha bo'lib, undagi yo'qotishlar ko'lam sezilarli: turli baholarga ko'ra, xaridlarda pora shartnoma qiymatining 8–25 foizini, Yevropa Ittifoqi bo'yicha esa xaridlardagi samarasizlik loyiha byudjetlarining 18 foizini (uning uchdan ikki qismi korrupsiya bilan bog'liq) tashkil etadi (1-rasm). Bunday ko'lam byudjet yo'qotishlarining oldini olishni nafaqat huquqiy, balki makroiqtisodiy jihatdan ham dolzarb masalaga aylantiradi.



1-rasm. Davlat xaridlarida moliyaviy yo'qotish baholari (% shartnoma/loyiha qiymatidan).

Samarali nazorat, eng avvalo, yo'qotishlarning iqtisodiy tabiatini to'g'ri tushunish va tizimli tasniflashni talab etadi. Mahalliy adabiyotda byudjet yo'qotishlariga ko'proq huquqiy va buxgalteriya nuqtai nazaridan — sodir etilgan xato va qonun buzilishlari sifatida — yondashiladi; ularning stoxastik (ehtimoliy) tabiati va iqtisodiy



mexanizmi ochilmay qoladi. Vaholanki, yo'qotishni tasodifiy hodisa emas, balki boshqarilishi mumkin bo'lgan xatar sifatida qarash uchun uning iqtisodiy mohiyatini aniqlash va operatsion nazoratga yaroqli tasnifini ishlab chiqish zarur. Ushbu maqolaning maqsadi — byudjet yo'qotishlarining iqtisodiy mohiyatini tizimlashtirish va risk-menejment amaliyotiga yaroqli ko'p o'lchovli tasnifni asoslashdan iborat.

2. Byudjet yo'qotishining iqtisodiy mohiyati

2.1. Tushunchaning ta'rifi va chegaralari

Byudjet yo'qotishi tor va keng ma'noda ta'riflanishi mumkin. Tor ma'noda u mablag'ning to'g'ridan-to'g'ri o'g'irlanishi yoki o'zlashtirilishini bildiradi. Keng — iqtisodiy — ma'noda esa u davlat oladigan jamoat nafining mablag'ning noqonuniy, nomaqsadli yoxud nosamarali sarflanishi natijasida kamayishidir. Ushbu tadqiqotda keng talqin qabul qilinadi, chunki u nafaqat korrupsion, balki nosamaradorlik oqibatidagi yo'qotishlarni ham qamrab oladi. Bu yerda muhim konseptual chegara mavjud: byudjet yo'qotishi “qonun buzilishi” (huquqiy fakt) bilan aynan bir narsa emas. Milliy byudjet qonunchiligida yo'qotish huquqiy kategoriyada belgilansa-da, qoida rasman buzilmagan holatlarda ham — masalan, raqobatsiz, ammo shaklan qonuniy xarid orqali narx sun'iy oshirilganda — iqtisodiy yo'qotish yuzaga keladi. Aynan shu chegara keyingi ko'p o'lchovli tasnifning asosini tashkil etadi.


2.2. Risk va noaniqlik: yo'qotishning ehtimoliy tabiati

F. Knightning klassik farqlanishiga ko'ra, risk — ehtimolli baholanadigan, noaniqlik esa baholanmaydigan holatdir. Byudjet yo'qotishini boshqarish nuqtai nazaridan bu farq hal qiluvchi ahamiyatga ega: agar yo'qotish baholanmaydigan noaniqlik bo'lsa, uni faqat post-faktum aniqlash mumkin; agar u ehtimolli baholanadigan risk bo'lsa, uni oldindan bashorat qilish va boshqarish mumkin bo'ladi. Ushbu tadqiqotning asosiy nazariy pozitsiyasi shundan iboratki, davlat xaridlaridagi yo'qotishlar tasodifiy hodisa emas, balki kuzatiladigan belgilar (indikatorlar) orqali ehtimolli baholanadigan tizimli xatardir. Aynan shu pozitsiya yo'qotishni risk-menejment obyektiga aylantiradi.

2.3. Agentlik nazariyasi va axborot asimmetriyasi

Byudjet yo'qotishining chuqurroq iqtisodiy mexanizmi agentlik nazariyasi orqali ochiladi. Davlat xaridlarida munosabat prinsipal (davlat va uning nomidan jamiyat) hamda agent (byudjet mablag'ini tasarruf etuvchi xarid komissiyasi yoki mansabdor) o'rtasida quriladi. Prinsipal agentning har bir harakatini to'liq kuzata olmaydi — bu axborot asimmetriyasini keltirib chiqaradi. Agent o'z manfaatini (renta, qulaylik, xavfsizlik) ko'zlab, prinsipal manfaatidan (mablag'ning samarali sarflanishi) chetga chiqishi mumkin. Byudjet yo'qotishi mohiyatan shu munosabatdagi axborot asimmetriyasi va manfaatlar to'qnashuvi natijasida yuzaga keladigan kutilayotgan zarardir (2-rasm).

2-rasm. Agentlik munosabati va axborot asimmetriyasining byudjet yo'qotishiga ta'siri



2-rasm. Agentlik munosabati va axborot asimmetriyasining byudjet yo'qotishiga ta'siri.

**2.4. Renta izlash, rag'bat mexanizmi va huquqbuzarlik qarorining iqtisodiy modeli**

Agentning nima uchun prinsipal manfaatidan chetga chiqishini renta izlash (*rent-seeking*) konsepsiyasi izohlaydi: davlat xaridlari sun'iy renta — bozor narxidan yuqori foyda — yaratish imkonini beradi va agent shu rentani o'zlashtirishga intiladi. Bunda qaror axloqiy emas, ratsional hisob-kitobga asoslanadi. G. Beckerning jinoyat iqtisodiyoti nuqtai nazaridan huquqbuzarlik qarori undan kutilayotgan foydaning ehtimoliy qiymatiga bog'liq bo'lib, uni kutilayotgan foydalilik (*expected utility*) funksiyasi ko'rinishida ifodalash mumkin:

$$EU = (1 - p) \cdot U(Y) + p \cdot U(Y - F)$$


Bu yerda EU — huquqbuzarlikdan kutilayotgan foydalilik; p — aniqlanish ehtimoli; Y — huquqbuzarlikdan olinadigan noqonuniy naf (renta); F — aniqlangan taqdirdagi jazo (sanksiya va mablag'ni undirish). Formuladan ko'rinadiki, huquqbuzarlikning jozibadorligi (EU) ikki parametr — aniqlanish ehtimoli (p) va jazo qiymati (F) — orqali kamayadi. Amaliy jihatdan jazoni (F) cheksiz oshirish mumkin emas va ko'pincha samarasizdir; asosiy dastak — aniqlanish ehtimolini (p) oshirishdir. Ushbu tadqiqotda ishlab chiqiladigan red-flag risk-skoring tizimi mohiyatan aynan p ni — xatarli operatsiyalarning aniqlanish ehtimolini — oshirishga qaratilgan vositadir. Shu tariqa Beckerning formulasi taklif etilayotgan modelning nazariy-matematik poydevorini tashkil etadi: model p ni oshirish orqali EU ni kamaytiradi va huquqbuzarlikni preventiv ravishda jilovlaydi.

2.5. Mahalliy va xalqaro talqinlar: qayta konseptuallashtirish zarurati

Mahalliy adabiyot va amaliyotda byudjet yo'qotishi asosan huquqiy-buxgalteriya kategoriyasida — sodir etilgan xato va qonun buzilishi sifatida — ta'riflanadi. Ushbu yondashuv nazorat uchun zarur, biroq ikki jihatdan cheklangan: birinchidan, u yo'qotishning ehtimoliy (stoxastik) tabiatini o'lchamaydi; ikkinchidan, u qoida rasman buzilmagan, ammo iqtisodiy jihatdan nosamarali holatlarni — passiv yo'qotishlarni — qamramaydi. Xalqaro adabiyotda esa yo'qotish agentlik, renta va aktiv/passiv isrof konsepsiyalari orqali iqtisodiy-ehtimoliy hodisa sifatida modellashiriladi. Ushbu ikki talqin bir-birini istisno etmaydi, balki to'ldiradi: milliy huquqiy baza yo'qotishning huquqiy chegarasini belgilaydi, iqtisodiy nazariya esa uning mexanizmini va bashoratlanuvchanligini ochadi. Aynan shu sintez — yo'qotishni huquqiy fakt emas, boshqariladigan xatar sifatida qayta konseptuallashtirish — keyingi ko'p o'lchovli tasnif uchun metodologik asosdir.

3. Byudjet yo'qotishlarining ko'p o'lchovli tasnifi**3.1. Tasnifning uch o'qi**

Byudjet yo'qotishlari yagona o'lchovda emas, balki uchta o'zaro bog'liq o'q kesimida tasniflanadi. Birinchi o'q — mexanizm: aktiv yo'qotishlar (mansabdorga naf keltiruvchi, manfaatlar to'qnashuviga asoslangan — korrupsion) va passiv yo'qotishlar (naf keltirmaydigan — nosamaradorlik, malaka va rag'bat yetishmasligi). Muhimi shundaki, empirik tadqiqotlar davlat sarflaridagi isrofnig asosiy qismi — taxminan 83 foizi — aynan passiv (nokorrupsion) tabiatga ega ekanini ko'rsatadi (3-rasm). Bu esa modelning yo'qotishni faqat korrupsiya emas, balki nosamaradorlik sifatida ham qamrashi zarurligini asoslaydi.


Byudjet isrofining mexanizm bo'yicha ulushi

Manba: Bandiera, Prat va Valletti (2009).

3-rasm. Byudjet isrofining mexanizm bo'yicha ulushi (Bandiera va boshq., 2009).



Ikkinchi o'q — determinant: yo'qotish sabablari Klitgaardning $C = M + D - A$ formulasi asosida uch guruhga bo'linadi — monopoliya/renta (M), diskretsiya (D) va hisobdorlik yetishmovchiligi (A). Formula matematik ifoda emas, balki sabablar tasnifi sifatida qo'llaniladi. Uchinchi o'q — xarid siklining bosqichi: yo'qotish makrobyudjet siklida emas, aynan xarid transaksiyasi siklida joylashtiriladi: (I) pre-tender — ehtiyojni shakllantirish va rejalashtirish; (II) tender — savdo protsedurasi; (III) post-tender — shartnoma ijrosi va to'lov. Uch o'qning o'zaro kesishmasi byudjet yo'qotishlarining ko'p o'lchovli tasnif modelini hosil qiladi (4-rasm).



Har bir kesishma (osak) keyingi bosqich risk-modeli uchun aniq, kuzatiladigan red-flag indikatoriga aylanadi.

4-rasm. Byudjet yo'qotishlarining uch o'lchovli tasnif modeli.

3.2. Tasnif-matritsasi

Uch o'qning kesishmasi quyidagi tasnif-matritsasini hosil qiladi; matritsaning har bir katagi keyingi bobdagi risk-model tomonidan aniq bir red-flag indikatoriga orqali o'lchanadi (1-jadval).

1-jadval. Byudjet yo'qotishlarining tasnif-matritsasi va red-flag indikatorlari.

Bosqich \ Determinant	Monopoliya / renta (M)	Diskretsiya (D)	Hisobdorlik yetishmovchiligi (A)
I. Pre-tender (ehtiyoj, rejalashtirish)	Spetsifikatsiyani bitta yetkazib beruvchiga moslash; narxni bozordan yuqori rejalashtirish · Aktiv	Xaridni bo'lib yuborish (split purchases); asossiz yakka manba protsedura · Aktiv	Ehtiyoj asoslanishi va bozor tahlilining yo'qligi; ortiqcha hajm · Passiv
II. Tender (savdo protsedurasi)	Yagona ishtirokchi (single-bidding); bir vendorning takroriy g'alabasi · Aktiv	Taklif muddatining asossiz qisqartirilishi; cheklovchi malaka mezonlari · Aktiv	Til biriktirish (collusion) belgilari; shaffoflik yetishmovchiligi · Aktiv/ aralash
III. Post-tender (ijro, to'lov)	Affiliatsiyalangan subpudrat; bir manbadan qo'shimcha xarid · Aralash	Berilgandan keyingi narx/ hajm o'zgarishlari (change orders) · Aktiv	Sifatsiz yoki to'liq bo'lmagan yetkazishni qabul qilish; qabul nazoratining zaifligi · Passiv

4. Tasnifning risk-modelga bog'lanishi: nazariyadan empirik algoritimga o'tish

4.1. Konseptual matritsaning algoritmik pasportga aylanishi

Ishlab chiqilgan uch o'lchovli matritsa faqatgina nazariy tasnif sxemasi bo'lib qolmay, balki davlat moliyaviy nazoratini avtomatlashtirishga qaratilgan risk-skoring algoritmining metodologik pasporti vazifasini bajaradi. Matritsaning fundamental qiymati shundaki, undagi har bir nazariy katak (xarid bosqichi, yo'qotish determinanti va mexanizmi kesishmasi) ochiq ma'lumotlar bazasidan (*open data*) raqamli ravishda suzib olinishi mumkin bo'lgan aniq, obyektiv va kuzatiladigan empirik indikatorga (*red flag*) aylantiriladi. Xalqaro amaliyotda “red flags”



(xavf indikatorlari) aynan axborot asimmetriyasini qisqartiruvchi va G. Beckerning jinoyat iqtisodiyoti modelidagi aniqlanish ehtimolini (p) keskin oshiruvchi asosiy operatsion vosita hisoblanadi.

4.2. Indikatorlarni matritsa kataklari bo'yicha xaritalash (mapping)

Matritsa o'lchamlari va tranzaksion ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagi reprezentativ misollar orqali asoslash mumkin. Tender bosqichidagi (3-o'q), monopoliya determinantiga (2-o'q) asoslangan yo'qotishlar: agar xaridda "yagona ishtirokchi" (*single-bidding*) yoki bitta vendorning takroriy va mutlaq g'alabasi kuzatilsa, bu raqobatning sun'iy cheklanganligini anglatadi; ushbu holat ko'pincha ishtirokchilar yoki komissiya o'rtasidagi til birlashtirish (*collusion*) orqali yuzaga keluvchi aktiv yo'qotish (1-o'q) hisoblanadi va modelda raqobat darajasi hamda ishtirokchilar konsentratsiyasi indikatorlari orqali o'lchanadi. Post-tender bosqichidagi, diskretsiyaga asoslangan yo'qotishlar: shartnoma g'olibga berilgandan so'ng uning hajmi yoki narxi qo'shimcha kelishuvlar (*change orders*) orqali asossiz oshirilsa, bu diskretsiyon vakolatning suiiste'molini namoyon etadi va algoritmi buni dastlabki shartnoma qiymati bilan yakuniy to'lov o'rtasidagi og'ish foizini hisoblash (*variance analysis*) orqali qayd etadi. Pre-tender bosqichidagi, hisobdorlik yetishmovchiligiga asoslangan yo'qotishlar: kutilayotgan narxning bozor qiymatidan sezilarli yuqori belgilanishi yoki shakllantirilgan ehtiyojning jamoat nafini yaratmasligi ko'pincha jinoyat emas, balki malakasizlik yoki e'tiborsizlik oqibati bo'lib, matritsada passiv yo'qotish sifatida tasniflanadi va "narx og'ishlari" (*price anomalies*) indikatorlari orqali ushlanadi. Alohida indikatorlar mustaqil emas, balki vaznli agregat risk-ball sifatida birlashtiriladi; nazorat organi shu ball asosida obyektlarni ehtimoliy xatar bo'yicha saralaydi.

4.3. "Waste-risk" talqinining metodologik va huquqiy himoyasi

Matritsani algoritimga ulash jarayonida eng muhim metodologik xulosa kelib chiqadi. O. Bandiera va hammualliflari ta'kidlaganidek, ayrim empirik indikatorlar (masalan, yakka manbadan xarid yoki narx anomaliyasi) bir vaqtning o'zida ham aktiv (korruptsiya qasd), ham passiv (rejalashtirishdagi xato yoki obyektiv bozor torligi) yo'qotishlarning alomati bo'lishi mumkin; mashinali o'qitish va risk-skoring algoritmlari inson niyatini (*mens rea*) bevosita farqlay olmaydi. Shu sababli ishlab chiqilgan ko'p o'lchovli tasnif keyingi empirik tadqiqotning eng kuchli huquqiy va institutsional himoyasini ta'minlaydi: risk-skoring modeli natijasi huquqiy ma'nodagi "isbotlangan korruptsiya fakti" emas, balki har ikki turdagi isrofini o'z ichiga oluvchi ehtimoliy "byudjet yo'qotishi xatari" (*waste-risk*) sifatida talqin qilinishi qat'iy belgilab qo'yiladi. Ushbu yondashuv nazorat organlariga obyektlarni ehtimoliy xatar bo'yicha to'g'ri saralash (*triage*) imkonini berish bilan birga, aybsizlik prezumpsiyasini to'liq saqlab qoladi va noto'g'ri musbat (*false positive*) natijalar bilan bog'liq huquqiy tanqidlarning oldini oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Byudjet yo'qotishlarining taklif etilgan uch o'lchovli tasnifi (mexanizm $\times$ determinant $\times$ xarid sikli bosqichi) ularning iqtisodiy tabiatiga tizimli nazariy asos beradi va yo'qotishni tasodifiy huquqbuzarlik emas, boshqarilishi mumkin bo'lgan xatar sifatida qarashga imkon yaratadi. Nazariy jihatdan yo'qotish agentlik munosabatidagi axborot asimmetriyasi mahsuli sifatida talqin etiladi, uning oldini olishning iqtisodiy mantig'i esa Beckerning jinoyat iqtisodiyoti formulasi orqali — aniqlanish ehtimolini (p) oshirish yo'li bilan — asoslanadi.

Tasnif matritsasining har bir kesishmasi aniq risk indikatoriga (*red flag*) bog'langani bois, u keyingi empirik bobda ishlab chiqiladigan risk-skoring modelining nazariy pasporti vazifasini bajaradi. Passiv yo'qotishlarning ham qamrab olinishi modelning nafaqat korruptsiyani, balki nosamaradorlikni ham aniqlashini ta'minlaydi va uni *waste-risk* sifatida huquqiy jihatdan xavfsiz talqin qilishga asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. **O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi:** O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrda O'RQ-360-son Qonuni bilan tasdiqlangan. – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, LexUZ. – Elektron manba. – Murojaat sanasi: 27.08.2026. LexUZ – O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi
2. **Bandiera O., Prat A., Valletti T.** Active and passive waste in government spending: Evidence from a policy experiment // *American Economic Review*. – 2009. – Vol. 99, No. 4. – P. 1278–1308. – DOI: **10.1257/aer.99.4.1278**.
3. **Becker G. S.** Crime and punishment: An economic approach // *Journal of Political Economy*. – 1968. – Vol. 76, No. 2. – P. 169–217. – DOI: **10.1086/259394**.
4. **Bosio E.** Reducing corruption in public procurement [Elektron manba] // *World Bank Blogs*. – 17 August 2021. – Murojaat sanasi: 27.08.2026. World Bank – Reducing corruption in public procurement
5. **Decarolis F., Giorgiantonio C.** Corruption red flags in public procurement: New evidence from Italian calls for tenders // *EPJ Data Science*. – 2022. – Vol. 11. – Art. 16. – DOI: **10.1140/epjds/s13688-022-00325-x**.
6. **Jensen M. C., Meckling W. H.** Theory of the firm: Managerial behavior, agency costs and ownership structure // *Journal of Financial Economics*. – 1976. – Vol. 3, No. 4. – P. 305–360. – DOI:



10.1016/0304-405X(76)90026-X.

7. **Klitgaard R.** *Controlling Corruption*. – Berkeley: University of California Press, 1988. – 230 p.
8. **Knight F. H.** *Risk, Uncertainty and Profit*. – Boston; New York: Houghton Mifflin Company, 1921. – XIV, 381 p.
9. **Open Contracting Partnership.** *Red Flags in Public Procurement: A Guide to Using Data to Detect and Mitigate Risks* [Elektron manba]. – 2024. – Murojaat sanasi: 27.08.2026. Open Contracting Partnership – Red Flags in Public Procurement
10. **Rose-Ackerman S.** *Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999.
11. **Vahobov A. V., Qosimova G. A.** *Davlat moliyasini boshqarish: o'quv qo'llanma*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2008. – 259 b. – ISBN 978-9943-13-061-6.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>